

3. Методические указания по геоботаническому обследованию естественных кормовых угодий Узбекистана, 1980. -170 с.

UO'K: 633.31

BEDA NAV-NAMUNALARINI BOSHPOYA BALANDLIGI BO'YICHA O'RGANISH VA TANLASH

¹N.X.Xudoyberdiyev, ²B.D.Allashov, ³U.A.Beknayev

¹*Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotekhnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti,*

²*Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti,*

³*Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotekhnologiyalar universiteti Toshkent filiali*

Annotasiya. Beda ekin turi qishloq xo'jaligida va chorvachilikda ozuqa bazasini mustahkamlashda, tuproq strukturasini mustahkamlashda asosiy ekinlardan biri bo'lib hisoblanadi. Har bir hudud tuproq-iqlim sharoitlariga mos bedaning yangi navlarini yaratishda kolleksiya namunalarni o'rganish va tanlash juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada beda kolleksiyasi namunalarining ikkinchi yilgi bosh poya balandligini o'rganish va tanlash natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Beda, ko'k massa, kolleksiya, namuna, pichan, hosildorlik, ozuqa bazasi, tuproq strukturasini, ozuqabop ekinlar, nav, duragay, seleksiya.

Summary. Alfalfa is one of the main crops in agriculture and livestock production for strengthening the food supply and strengthening the soil structure. The study and selection of collection samples is of great importance when creating new varieties of alfalfa suitable for the soil and climatic conditions of each region. This article presents the results of the study and selection of collection samples of alfalfa according to the height of the main stem of the second year.

Key words: Alfalfa, green mass, collection, sample, hay, productivity, food supply, soil structure, forage crops, variety, hybrid, selection.

Kirish. Respublikamiz qishloq xo'jaligini rivojlantirishda paxtachilik va g'allachilik bilan bir qatorda yem-hashak ekinlari, jumladan ko'p yillik dukkakli o't ekini - beda maydonlarini kengaytirish muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tavsiyasiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi (10000 ga) va Sirdaryo viloyatida (5000 ga) beda urug'chiligi agrofimalari tashkil etib, chorva ozuqa bazasini mustahkamlash va eksportbop beda urug'ini yetishtirish rejalashtirilgan. Bugungi kunda beda ekinidan qishloq xo'jaligida nafaqat chorva mollari uchun ozuqabop yuqori pichan va ko'k massa hosiliga ega navlarni, balki yuqori urug' hosiliga ega bo'lgan beda navlarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Chunki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida agroklastar va fermer xo'jaliklari tuprog'ining meliorativ holatini yaxshilash va almashlab ekish maqsadida ekin maydonlarining 10% ga beda ekinini joriy etish, bu ekinning urug'chiligini takomillashtirish hamda yuqori urug' hosiliga ega navlar yaratish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biridir. Shuning uchun biz olib borayotgan tadqiqotlarimizda kolleksiya materiallarining bir qancha katta ahamiyatli ko'rsatkichlari bilan birgalikda bosh poya balandligiga ham katta ahamiyat berdik. K.Isakova va S.Egamberdiyeva tadqiqotlarida aniqlandiki, bedani bahorgi va kuzgi muddatlarda urug'larni 10 kg/ga ekilganda, andoza variantida yuqoriroq me'yorda ekilganiga (20 kg/ga) nisbatan, bedaning rivojlanish fazalari bir oz tezlashadi, generativ poya va gul shingillari ko'proq paydo bo'ladi, ildiz sistemasi yaxshiroq rivojlanadi, o'simliklarning nobud bo'lishi kamayadi, urug' hosildorligi yuqori bo'ladi. (Isakov, Egamberdiyeva, 2009) Bedaning seleksiya jarayoni ishlari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish bir qator mualliflarning ilmiy ishlarida keltirilgan (Rashidov va boshq.,

2010). Tadqiqotlarning ko'pchiligi bir qator xorijiy mamlakatlardan keltirilgan bedaning seleksiya navlari va yovvoyi namunalarini o'rganib va ularning orasidan ba'zi qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha eng yaxshi shakllarini ajratib olib yangi navlar yaratilgan (Kozlov va Piskovskiy, 2005). Ma'lumki, ozuqa birligi ekinlarning tarkibidagi oqsil moddasi barglarning ma'lum darajada poyadagi nisbatiga bog'liq. Bedaning bargida oqsil, vitaminlar, mineral moddalar o'simliklarning poyasiga nisbatan ko'proq miqdorda bo'ladi, ya'ni ozuqasi sifatliroq bo'ladi. Tadqiqotchilar ko'pgina tahlillar o'tkazish natijasida aniqlashicha, beda barglarida poyalarga nisbatan oqsil miqdori 1,5-2 marta ko'p bo'ladi (Jo'rayev va boshq., 2007; Piskovskiy va boshq., 2007; Tkachenko va boshq., 2006). Chatishtirish va tanlash usullari bilan o'simliklarning duragay avlodlariga eng qimmatli xo'jalik belgi va xususiyatlarini o'tkazib, seleksiya usuli bilan ya'ni tanlash orqali istalgan belgilarga ega yangi navlarni yaratish mumkin (Bashkirova, 2007; Dyulgerov va boshq., 2005).

Tadqiqot maqsadi. Kolleksiya mavjud beda namunalarini ekib o'rganish, boshpoya balandligi bo'yicha tahlil qilish, yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'lganlarini tanlab olish.

Tadqiqot usullari. Tajribalar "Don va dukkakli ekinlardan elita va superelita urug'larini olish" (1982), uslubi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Kolleksiya davrida beda namunalari Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tajriba dalasida ekildi. Ikkinchi yilgi beda namunalari uchta o'rini bo'yicha bosh poya balandligi o'lchandi. O'rtacha bitta o'simlikning bo'yi bo'yicha o'lchash ishlari aniqlandi. Bunda har bir o'simlikning yer yuzasidagi pastki qismidan eng yuqori nuqtasigacha bo'lgan balandligi o'lchandi. Jadvalda ko'rinib turganidek daladagi barcha o'simlik ya'ni 45 xil namuna va 1 ta andoza Toshkent-1 navi o'rganilgan. O'rganilayotgan 45 xil nav va namunalarni andoza nav bilan taqqoslab ularni baholadik va quyidagi natijalarga erishdik. Andoza Toshkent-1 navining o'rtacha birinchi o'rimdan oldingi bo'yi 83 sm.ni tashkil etdi.

Tadqiqotlarda 1 metrdan oshgan holda 115 sm. bilan kolleksiyadagi raqami k-6660 bo'lgan namuna eng yaxshi natija qayd etdi. Undan keyin esa 90 sm.dan oshganlar esa quyidagilar bo'ldi: k-6171-98 sm., k-6224-93 sm., k-6650-96 sm., va undan balandlar esa k-6105-88 sm., kolleksiyadan raqamsiz olingan Mahalliy 4 namuna esa 88 sm., k-6629-89 sm., k-6640- 89 sm., Mahalliy 1 88 sm., Mahalliy 2 88 sm., k-6656 85 sm., ni tashkil etib andoza navdan yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatdi.

1-jadval

Beda namunalari bosh poya balandligi, sm (2023 y).

Tartib nomeri №	Namuna nomi yoki kolleksiya nomeri	Ikkinchi yilgi 3 o'rimdagi bitta o'simlikning o'rtacha bo'yi (sm)
1	Mahalliy 1	82
2	Mahalliy 2	83
3	Mahalliy 3	79
4	Barenburg	78
5	Banat	79
6	Yemilyana	82,5
7	k-6194	78
8	k-6220	73
9	k-6105	88
10	k-6197	79
11	k-6804	81
12	k-6719	78
13	k-6682	34
14	k-6204	69
15	k-6571	77,5

16	k-6100	96
17	k-6171	98
18	k-6735	81,3
19	k-6218	76
20	k-6172	71
21	k-6637	59
22	k-6163	69
23	k-6186	63
24	k-6224	93
25	k-6200	70
26	k-6750	79
27	k-6771	46
28	k-6660	115
29	k-6227	79
30	MAHALLIY 4	88
31	k-6181	68
32	k-6649	76
33	k-6629	89
34	k-6650	96
35	k-6219	78
36	k-6535	63
37	k-6662	67
38	k-6638	56
39	k-6643	77
40	k-6656	85
41	k-6633	79
42	k-6640	89
43	k-6756	59
44	k-6753	79
45	k-6757	80
46	Toshkent 1	83

Andoza Toshkent-1 navi 83 sm. bosh poya balandligini ko'rsatgan bo'lsa quyidagi namunalar past natijalarga ega bo'ldi. k-6771 46 sm., k-6227 79 sm., k-6181 68 sm., k-6649 76 sm., k-6219 78 sm., k-6535 63 sm., k-6662 67 sm., k-6638 56 sm., k-6643 77 sm., k-6633 79 sm., k-6756 59 sm., k-6753 79 sm., bosh poya balandligiga erishdi va andozadan past ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Xulosa. Bosh poya balandligi bo'yicha andoza Toshkent 1 navida bosh poya balandligi 83 sm.ni tashkil yetdi. Namunalar orasida k-6660 namunasi 32 sm., k-6100 namunasi 13 sm., k-6650 namunasi 13 sm., k-6171 namunasi 15 sm. andozadan bosh poya balandligi bo'yicha yuqori natijalar ko'rsatdi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Башкирова Н.В. 2007. Комбинационная способность инбредных линий люцерны посевной. Генетические ресурсы культурных растений в ХХИ веке: состояние, проблемы, перспективы. Тезисы докладов 2- ой Вавиловской международной конференции, Санкт-Петербург, 26-30 ноября, 2007.

2. Исаков К., Эгамбердиев С. 2009. Семенная и фуражная продуктивность люцерны в зависимости от сроков сева и нормы высева. Агро Илм, 4(12) с.19.

3. Козлов Н.Н., Писковацкий Ю.М. Схема селекции люцерны с использованием фенотипических маркеров. Селекция и семеноводство, №2 –2005. С. 5-7.